

TYPES OF PROTECTING PERSONAL INFORMATION IN CYBERCRIME INVESTIGATIONS

Ergashova Mamura Amangeldi qizi

Annotation: This thesis covers the legal, organizational and technical aspects of personal data protection in the process of investigating cybercrimes. The study analyzes practical mechanisms for ensuring information security in the collection, storage, processing and use of personal data during investigative activities. Also, proposals and recommendations are put forward to improve the personal data protection system based on the current legislation of the Republic of Uzbekistan and international experience.

Keywords: cybercrimes, investigation, personal data, information security, data protection, legal mechanisms, technical measures.

KIBERJINOYATLAR TERGOVIDA SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARNI MUHOFAZA QILISH TURLARI

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi kiberjinoyslarni tergov qilish jarayonida shaxsga doir ma'lumotlarni muhofaza qilishning huquqiy, tashkiliy va texnik turlari yoritilgan. Tadqiqotda tergov faoliyati davomida shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash hamda ulardan foydalanishda axborot xavfsizligini ta'minlashning amaliy mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va xalqaro tajribalar asosida shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish tizimini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: kiberjinoyslalar, tergov, shaxsga doir ma'lumotlar, axborot xavfsizligi, ma'lumotlarni muhofaza qilish, huquqiy mexanizmlar, texnik choralar.

Аннотация. В диссертации рассматриваются правовые, организационные и технические аспекты защиты персональных данных при расследовании киберпреступлений. В исследовании анализируются практические механизмы обеспечения информационной безопасности при сборе, хранении, обработке и использовании персональных данных в ходе оперативно-розыскной деятельности. Также формулируются предложения и рекомендации по совершенствованию системы защиты персональных данных на основе действующего законодательства Республики Узбекистан и международного опыта.

Ключевые слова: киберпреступления, расследование, персональные данные, информационная безопасность, защита данных, правовые механизмы, технические меры.

Kiberjinoyslalar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishi bilan paydo bo'lgan va tobora murakkablashib borayotgan global muammolardan biridir. Kiberjinoyslalar sonining shiddat bilan oshishi shaxsga doir ma'lumotlarni muhofaza qilishning samarali tizimini yaratishni bugungi kundagi dolzarb masalalardan biriga aylantirdi. Chunonchi, kiberjinoyslarni tergov qilish jarayonida shaxsga doir ma'lumotlarni muhofaza qilish muhim ahamiyatga ega. Ushbu muhofaza qilish jarayoni

shaxsning huquq va erkinliklarini, shaxsga doir ma'lumotlar ning xavfsizligini ta'minlash, maxfiylikni saqlash hamda noqonuniy foydalanish va oshkor qilishning oldini olishga qaratilgan.

Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish keng ko'lamlı usullar va mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Ushbu ma'lumotlarni muhofaza qilishni alohida turlarga ajratar ekanmiz, bu jarayon nafaqat texnik, balki huquqiy, tashkiliy, axloqiy va boshqa choralarga asoslanadi. Quyida ushbu muhofaza qilish turlariga to'xtalib o'tamiz:

Huquqiy muhofaza. Kiberjinoyatlarni tergov qilish jarayonida shaxsga doir ma'lumotlarning huquqiy muhofazasi deganda shaxsga doir ma'lumotlarni qonunchilik me'yorlariga muvofiq ravishda to'plash, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanishni nazorat qilish tizimi tushuniladi. Bundan maqsad tergov davomida inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash va shaxsga doir ma'lumotlar bilan noqonuniy harakatlarning oldini olishdir. Ushbu muhofaza turi ma'lumotlarni muhofaza qilishga oid hamda kiberjinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro va milliy miqyosda qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlardan iborat.

Huquqiy muhofazani **milliy qonunchilik** doirasida ko'rib chiqadigan bo'lsak, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish uchun maxsus qonun va qonunosti hujjatlari mavjud. Masalan:

O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuni [1];

O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonuni [2];

Axborot xavfsizligini ta'minlashga doir normativ hujjatlar.

Xalqaro darajada shaxsga doir ma'lumotlarni muhofaza qilishning muhim asosi bo'lgan **xalqaro shartnomalar va standartlar hamda xalqaro tajribalar** quyida berilgan [3]:

GDPR (General Data Protection Regulation) – Yevropa Ittifoqida ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti;

Budapesht konvensiyasi;

ISO 27001 – Axborot xavfsizligini boshqarish bo'yicha xalqaro standart;

Kiberxavfsizlik tashkilotlarining hisobotlari (masalan, Kaspersky, Norton, McAfee kabi kompaniyalarning materiallari);

Interpol va Europol kiberjinoyatlarga qarshi kurash bo'yicha resurslari;

UNODC (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Narkotik va Jinoyatchilik bo'yicha idorasi) tomonidan berilgan tavsiyalar;

ITU (International Telecommunication Union) Kiberjinoyatlar va axborot xavfsizligi bo'yicha xalqaro hisoblari.

Texnik muhofaza. Texnik muhofaza – bu axborot, obyekt, tizim yoki infratuzilmani jismoniy, texnologik va dasturiy vositalar yordamida himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui [4]. Texnik muhofaza ko‘pincha boshqa himoya turlari (huquqiy, tashkiliy) bilan birgalikda amalga oshiriladi va axborot xavfsizligi tizimlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Shaxsga doir ma’lumotlarning texnik muhofazasi:

axborotni ruxsatsiz kirishdan, o‘g‘irlashdan yoki buzilishdan himoya qilish;
tizim va qurilmalar uzluksiz ishlashini ta’minlashdan iborat.

Tashkiliy muhofaza. Kiberjinoyatlarni tergov qilish jarayonida shaxsga doir ma’lumotlarning tashkiliy muhofazasi deganda tergov jarayonida shaxsga doir ma’lumotlar ni ruxsatsiz foydalanish, tarqatish yoki o‘g‘irlanishdan himoya qilish uchun amalga oshiriladigan boshqaruv va tashkilotchilik choralarini tushuniladi [5]. Bu muhofaza tergovning qonuniy va axloqiy tamoyillarga muvofiq amalga oshirilishini ta’minlash bilan birga, ma’lumotlar xavfsizligini saqlashga qaratilgan.

Tashkiliy muhofaza qilishning asosiy jihatlari:

Shaxsga doir ma’lumotlar (masalan, ism-familiya, manzil, kontakt ma’lumotlari, moliyaviy va boshqa nozik ma’lumotlar) faqat tergov jarayonida ishlatiladi va uchinchi shaxslar bilan ruxsatsiz bo‘lishilmaydi.

Tergovda shaxsga doir ma’lumotlar faqat qonunda belgilangan tartibda olinishi va qayta ishlanishi kerak. Bu jarayon har qanday noqonuniy usullardan xoli bo‘lishi lozim. Shaxsga doir ma’lumotlardan faqat kiberjinoyatni tergov qilish maqsadida foydalaniladi. Boshqa maqsadlarda foydalanish yoki ulardan noto‘g‘ri foydalanish qat’iyan taqiqlanadi. Tergov tugagach, shaxsga doir ma’lumotlarni qonunchilikka muvofiq yo‘q qilish yoki arxivlash kerak.

Tashkiliy muhofaza doirasida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim:

ma’lumotlarga faqat vakolatli xodimlarning kirishini ta’minlash;
xodimlarni shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha o‘qitish;
ma’lumotlar bilan ishlash tartibi va siyosatini ishlab chiqish hamda joriy etish.

Ma’naviy-axloqiy muhofaza. Kiberjinoyatlarni tergov qilish jarayonida shaxsga doir ma’lumotlarning ma’naviy-axloqiy muhofazasi deganda tergov davomida shaxsning sha’ni, qadr-qimmatini va huquqlariga zarar yetkazmaslik, ma’lumotlardan faqat zarur bo‘lganda foydalanish va axloqiy tamoyillarni saqlashni ta’minlash tushuniladi. Bu, ayniqsa, kiberjinoyatlar tergovida muhim, chunki bunday jinoyatlar ko‘pincha shaxsga doir ma’lumotlar, maxfiylik yoki nozik axborot bilan bog‘liq bo‘ladi.

Jarayonlarni muvofiqlashtirish shaxsga doir ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlashda qo‘shimcha muhofaza chorasi hisoblanadi. Bunda tergov organlari faoliyatini muvofiqlashtirish muhim ahamiyatga ega. Kiberjinoyatlarni tergov qilishda bir nechta davlat organlari va tashkilotlar ishtirok etishi mumkin. Shaxsga doir ma’lumotlar faqat kerakli organlar o‘rtasida o‘zaro kelishilgan tartibda almashinadi. Kiberjinoyatlar bo‘yicha ma’lumotlar faqat shifrlangan kanallar orqali uzatiladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, kiberjinoyatlarni tergov qilishda shaxsga doir ma'lumotlarni muhofaza qilishning turli mexanizmlari birgalikda qo'llanilishi lozim. Huquqiy, texnik, tashkiliy va axloqiy choralarini uyg'unlashtirish orqali shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash mumkin. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarni doimiy kuzatib borish va yangi xavf-xatarlarga qarshi mos choralar ko'rish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-547-son Qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasining 15.04.2022 yildagi "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi O'RQ-764-son Qonuni;
3. GOST ISO/IEC 29100-2021 Информационные технологии (IT). Методы средства обеспечения безопасности. Основы защиты персональных данных. 4.2.2;
4. INTERPOL Background Note - Information System Safeguards for the Exchange of Personal Data;
5. <https://gdpr-info.eu/issues/personal-data/>;
6. [https://www.lib.sfu.ca/help/academic-integrity/copyright/technological-protection-measures](https://www.lib.sfu.ca/help/academic-integrity/copyright/technological-protection-measures;);
7. <https://www.sciencedirect.com/topics/computer-science/organizational-security>